



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 4 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 9, НОМЕР 4

LOOK TO THE PAST
VOLUME 9, ISSUE 4



ТОШКЕНТ-2026

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ермегов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Рашидов Ойбек Расулович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайдон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Баҳадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Юсупов Аҳмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Urganch davlat universiteti

Тиллажаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Тошкент давлат техника университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоқов Бахтиёр Робидинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

Турсунова Юлдуз Бобоқулловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Bahodir Isakov O‘ZBEKISTONDAGI QOZOQ ETNOSI TARIXINI O‘RGANISHNING NAZARIY- METODOLOGIK ASOSLARI.....	5
2. Abduvali Berdiyev, Soatqulov Islom XIVA XONLARI VA USMONLI SULTONLARI O‘RTASIDAGI YOZISHMALAR: DIPLOMATIK MAKTUBLAR TILI VA USLUBI.....	10
3. Пётр Чублуков НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ИСТОРИИ ГРЕКО-МАКЕДОНЦЕВ НА ТЕРРИТОРИИ СРЕДНЕЙ АЗИИ ПРИ СЕЛЕВКИДАХ.....	14
4. Shahlo Ubaydullayeva O‘ZBEKISTON TIBBIYOTIDA XOTIN-QIZLAR FAOLIYATI VA ONA-BOLA SALOMATLIGINI MUHOFAZA QILISH MUAMMOLARI (XX ASRNING IKKINCHI YARMI MISOLIDA).....	22
5. Mirhomid Mirakbarov O‘ZBEKISTON GEOLOGIYASI TARIXIDA MURUNTOV OLTIN KONINING KASHF ETILISHI VA MAMLAKATIMIZ SANOATIDA TUTGAN O‘RNI.....	28
6. Mirjalol Abdullayev SHAYBONIYLAR DAVRIDA MUKOFOTLASH VA JAZOLASH TIZIMI (“MUSAXXIR AL- BILOD” ASARI MISOLIDA).....	35
7. Abdillajon Pazilov BENJAMIN FRANKLINNING IQTISODIY VA FALSAFIY QARASHLARI.....	41
8. Mashhura Burxanova ROSSIYA IMPERIYASINING TURKISTON O‘LKASIDAGI STRATEGIK MAQSADLARI VA UNI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMLARI.....	46
9. Равшан Хомитов ЎЗБЕКИСТОНДАГИ ЭТНОСЛАРАРО МУНОСАБАТЛАРДА РЕСПУБЛИКА ҚОЗОҚ МИЛЛИЙ МАДАНИЙ МАРКАЗИНИНГ ЎРНИ.....	51
10. Iqbol Jabbarova РАХТАЧИЛИКНИ RIVOJLANTIRISH YO‘LIDA: QASHQADARYO IRRIGATSIYA TIZIMINING BOSHLANG‘ICH TRANSFORMATSIYASI (1930–1940-y.y).....	57
11. Rabiyajon Ibragimova QUYI AMUDARYO HUDUDIDA ANTIK DAVR SUG‘ORISH INSHOOTLARI.....	64
12. Gulrux Fayzullayeva, Shoira Nurullayeva AL XORAZMIY HAQIDA.....	68



Iqbol Xo‘jamurotovna Jabbarova,
t.f.f.d (PhD), dotsent,
QarDU doktoranti
iqbol.jabbarova@gmail.com

**PAXTACHILIKNI RIVOJLANTIRISH YO‘LIDA: QASHQADARYO IRRIGATSIYA
TIZIMINING BOSHLANG‘ICH TRANSFORMATSIYASI (1930–1940-y.y).**

For citation: Iqbol Kh. Jabbarova. ON THE PATH TO COTTON DEVELOPMENT: THE INITIAL TRANSFORMATION OF THE KASHKADARYA IRRIGATION SYSTEM (1930–1940). Look to the past. 2026, vol. 9, issue 4.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.19846152>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada XX asrning 30–40-yillarida Qashqadaryo viloyatida irrigatsiya tizimini tubdan o‘zgartirish jarayonlari tahlil qilinadi. Sovet hokimiyati davrida agrar siyosatning markazida sug‘orma dehqonchilikni, ayniqsa paxtachilikni rivojlantirish masalasi turgan. Qashqadaryoning qurg‘oqchil iqlimi va mavjud eski sug‘orish tarmoqlarining samarasizligi yangi ilmiy asoslangan gidrotexnik yechimlarni talab qilgan. Maqolada G.N. Vinogradov kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlari, 1920–1930-yillardagi dastlabki loyiha-qidiruv ishlari (“O‘zvodproiz”, SANIIRI), yer-suv islohotlari, kanal va gidrotexnik inshootlar qurilishi (masalan, “1 May”, “8 Mart”, Koson magistral kanali) batafsil yoritilgan. Shuningdek, 1939-yilgi muhim qurilishlar, 1940-yillardagi qurg‘oqchilik muammolari, urushdan keyingi tiklash ishlari va Zarafshon hamda Amudaryo suvlarini olib kelish loyihalarining dastlabki bosqichlari tahlil etilgan. Maqolada 1930–1940-yillar davomida irrigatsiya tizimi sodda, tarixiy usullardan bosqichma-bosqich zamonaviy, muhandislik asosiga ega tizimga o‘tganligi, bu jarayonda ilmiy izlanishlar va amaliy qurilish ishlarining uzviyligi ko‘rsatilgan. Shu bilan birga, suv resurslarining cheklanganligi va qurg‘oqchilik yillari tizimning zaif tomonlarini ochib berganligi ham ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar. Qashqadaryo, irrigatsiya, 1930–1940-yillar, sug‘orish tizimi, paxtachilik, gidrotexnik inshootlar, Vinogradov, yer-suv islohoti, kanal qurilishi, suv taqsimoti, qurg‘oqchilik, Sovet agrar siyosati, “1 May” kanali, “8 Mart” kanali, Rudaksoy suv ombori, Qamashi suv ombori, melioratsiya.

Iqbol Kh.Jabbarova
PhD in History, Associate Professor
doctoral researcher at Karshi State University
iqbol.jabbarova@gmail.com

**ON THE PATH TO COTTON DEVELOPMENT: THE INITIAL TRANSFORMATION OF
THE KASHKADARYA IRRIGATION SYSTEM (1930–1940)**

ABSTRACT

This article analyzes the processes of a radical transformation of the irrigation system in the Kashkadarya region during the 1930s and 1940s. During the Soviet era, the development of irrigated agriculture, particularly cotton cultivation, was at the center of agrarian policy. The arid climate of Kashkadarya and the inefficiency of the existing old irrigation networks demanded new scientifically based hydrotechnical solutions. The article details the scientific research of scholars such as G.N. Vinogradov, the early survey and design works of the 1920s–1930s (Uzvodproiz, SANIIRI), land and water reforms, and the construction of canals and hydrotechnical structures (e.g., “1 May,” “8 March,” the Koson Main Canal). Furthermore, it analyzes the major construction projects of 1939, the drought problems of the 1940s, post-war recovery efforts, and the initial stages of projects to divert water from the Zarafshan and Amu Darya rivers. The article demonstrates that during the 1930s–1940s, the irrigation system gradually transitioned from simple, historical methods to a modern, engineering-based system, highlighting the interconnection between scientific research and practical construction works. At the same time, it emphasizes that the limited water resources and years of drought revealed the system’s vulnerabilities.

Index Terms: Kashkadarya, irrigation, 1930s–1940s, irrigation system, cotton cultivation, hydrotechnical structures, Vinogradov, land and water reform, canal construction, water distribution, drought, Soviet agrarian policy, “1 May” canal, “8 March” canal, Rudaksoy reservoir, Kamashi reservoir, melioration.

Джаббарова Икбол Хужамуратовна

PhD по историческим наукам, доцент

докторант (DSc) Каршинского государственного университета

iqbol.jabborova@gmail.com

НА ПУТИ РАЗВИТИЯ ХЛОПКОВОДСТВА: НАЧАЛЬНАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ИРРИГАЦИОННОЙ СИСТЕМЫ КАШКАДАРЬИ (1930–1940 г.г)

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются процессы коренного преобразования ирригационной системы в Кашкадарьинской области в 30–40-е годы XX века. В советский период в центре аграрной политики стоял вопрос развития поливного земледелия, особенно хлопководства. Засушливый климат Кашкадарьи и неэффективность существовавших старых оросительных сетей требовали новых научно обоснованных гидротехнических решений. В статье подробно освещаются научные исследования таких ученых, как Г.Н. Виноградов, ранние проектно-исследовательские работы 1920–1930-х годов («Узводпроиз», САНИИРИ), земельно-водные реформы, строительство каналов и гидротехнических сооружений (например, «1 Мая», «8 Марта», Касанский магистральный канал). Также анализируются важнейшие стройки 1939 года, проблемы засухи 1940-х годов, послевоенные восстановительные работы и начальные этапы проектов по переброске вод Зеравшана и Амударьи. В статье показано, что на протяжении 1930–1940-х годов ирригационная система постепенно переходила от простых, исторически сложившихся методов к современной, основанной на инженерных принципах системе, демонстрируется взаимосвязь научных исследований и практических строительных работ. В то же время подчеркивается, что ограниченность водных ресурсов и засушливые годы выявили уязвимые стороны системы.

Ключевые слова: Кашкадарья, ирригация, 1930–1940-е годы, оросительная система, хлопководство, гидротехнические сооружения, Виноградов, земельно-водная реформа, строительство каналов, распределение воды, засуха, советская аграрная политика, канал «1 Мая», канал «8 Марта», Рудакское водохранилище, Камашинское водохранилище, мелиорация.

Kirish:

XX asrning 30–40-yillari O‘zbekiston, xususan Qashqadaryo viloyati uchun irrigatsiya tizimini tubdan o‘zgartirish davri bo‘ldi. Bu davrda agrar siyosatning markazida sug‘orma dehqonchilikni kengaytirish, ayniqsa paxtachilikni rivojlantirish masalasi turdi. Qashqadaryo hududi tabiiy-iqlimiy jihatdan qurg‘oqchil bo‘lib, sug‘orish tizimi mavjud bo‘lmasdan turib barqaror qishloq xo‘jaligini yuritish deyarli imkonsiz edi. Shu sababli sovet hokimiyati davrida irrigatsiya tizimini modernizatsiya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi.

XX asrning 30-yillarida viloyatning suv xo‘jaligi holati juda og‘ir bo‘lib, mavjud sug‘orish tarmoqlari asosan ilgari mavjud bo‘lgan eski usullarga asoslangan edi. Suvni taqsimlash tizimi ilmiy asosga ega bo‘lmagan (bu hududning tabiiy iqlim geografiyasi bilan bog‘liq. Amirlik davrigacha mavjud bo‘lgan xalq amaliy tajribasida albatta bu hisobga olingan edi, ammo XX asr 30-yillariga kelganda vaziyat allaqachon o‘zgargan, iqlim, tabiiy resurlar holati avvalgidek bo‘lmagan), gidrotexnik inshootlar yetishmagan, suv resurslaridan foydalanish esa samarali tashkil etilmagan. Shu bilan birga, 1930–40-yillarda amalga oshirilgan irrigatsiya loyihalari, qurilish ishlari va tashkiliy chora-tadbirlar Qashqadaryoda zamonaviy sug‘orish tizimining shakllanishiga asos bo‘lib xizmat qildi. Bularning barchasi hamda XX asrning 20-yillaridagi olib borilgan tadbirlar Sovet hokimiyatini ilmiy asoslab ish boshlash lozimligiga turtki bo‘ldi.

G.N. Vinogradovning “Qashqadaryo vodiysida irrigatsiya” asari, Qashqadaryo viloyatining tarixiy-iqtisodiy rivoji masalalari “Qashqadaryo viloyati” (1959, I–II jildlar) kabi fundamental asarlar muhim manba sanaladi. Sovet davrida qishloq xo‘jaligini kollektivlashtirish jarayonlari F. Jumabayev tadqiqotlarida keng yoritilgan. U o‘z ishlarida 1917–1929-yillar oralig‘ida Qashqadaryo viloyatida yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlarni tahlil qilib, kollektivlashtirishning tarixiy shart-sharoitlarini ochib beradi. Bu jarayonlarning umumiy tasviri “O‘zbekiston tarixi (1917–1991)” asarida ham tizimli ravishda bayon etilgan.

Arxiv manbalari, xususan Qashqadaryo viloyati davlat arxivi (QVDA) fondlari (C-133, 79-fond va boshqalar) hamda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi hujjatlari tadqiqot uchun muhim birlamchi manba hisoblanadi. Irrigatsiya va melioratsiya sohasidagi ilmiy izlanishlar H. Toshev va H. Ochilov asarlarida chuqur o‘rganilgan.

Davriy nashrlar, jumladan “Правда Востока”, “Кашкадарьинская правда”, “Ленинское знамя” gazetalarida e‘lon qilingan maqolalar orqali o‘sha davr siyosati, qishloq xo‘jaligidagi islohotlar va irrigatsiya tizimlarining amaliy natijalari haqida muhim ma‘lumotlar olish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot muayyan ilmiy tamoyillarga asoslangan holda olib boriladi. Ushbu tadqiqotda **tarixiylik tamoyili** asosiy o‘rin tutadi, ya‘ni hodisalarni ularning tarixiy shart-sharoitlari va xronologik ketma-ketligida tahlil qilish imkonini beradi. **Ob‘ektivlik tamoyiliga** ko‘ra, tarixiy faktlar va hodisalarga biryoqlama yoki subyektiv baho berishdan qochilib, mavjud manbalar asosida xolisona yondashildi.

Shuningdek, tadqiqotda **tizimlilik tamoyili** qo‘llaniladi. Unga muvofiq, irrigatsiya tizimi nafaqat texnik inshootlar majmui, balki iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillar bilan chambarchas bog‘liq holda tahlil qilinadi.

Nahlil va natijalar:

XX asr 30-yillari boshiga kelganda viloyatda paxtachilikning holati, uni rivojlantirish harakatlari boshlab yuborildi. 1920-yillarda Toshkentda tashkil etilgan O‘rta Osiyo irrigatsiya ilmiy-tadqiqot instituti yangi sug‘orish tizimlarini qurilishini ishlab chiqish, kelajakdagi loyihalarning gidravlik asosini yaratish va tadqiqot natijalariga ko‘ra yangi paxta maydonlarini kengaytirish borasida (**Среднеазиатский научно-исследовательский институт ирригации**) yirik ilmiy muassasa vazifasini o‘tadi[1]. Bu yo‘nalishdagi birinchi tajriba “O‘zvodproiz” ning 1926–1929 yillardagi “Qashqadaryo daryosi havzasida yerdan foydalanish sxemasi” ishi bo‘ldi[2].

Markaziy Osiyo irrigatsiya va gidrotexnika masalalari bilan shug‘ullangan SANIRI muhandisi va tadqiqotchisi **G.N. Vinogradov** 1920–1930-yillarda **Qashqadaryo vodiysi irrigatsiya tizimlarini o‘rganish** bilan shug‘ullandi. Qashqadaryo havzasining **geografiyasi, iqlimi, sug‘orish tarixiy tizimlari va XX asr boshidagi irrigatsiya imkoniyatlarini** ilmiy

jihatdan tahlil qildi. Hidrologik kuzatuvlar olib bordi, suv resurslarini hisoblash metodikasini ishlab chiqdi, voha bo'yicha irrigatsiya loyihalarini ilmiy jihatdan asoslab berdi[3]

Vinogradov o'zining tadqiqotlarida **tabiiy sharoitni o'rganishda** Qashqadaryo daryosining suv rejimi, mavsumiy suv oqimi va uning notekisligi, daryoning Qarshi cho'liga singib ketishi holati haqida izlanishlar olib borgan. Qashqadaryo daryosi cho'l hududida yo'qolib ketishi irrigatsiyani murakkablashtirishi xulosasini aniqlagan. **Mavjud irrigatsiya tizimining tahlili** eski ariqlar va kanallarning samarasizligi, suv yo'qotishlarining yuqoriligi, muhandislik inshootlarining yetishmasligi, suvni tartibga solish uchun gidrotexnik inshootlar qurish, suv taqsimotini ilmiy asosda tashkil qilish, sug'oriladigan yer maydonlarini kengaytirish kabi **yangi loyiha takliflarini** ilgari surgan. Vinogradov tadqiqotlari keyinchalik Qarshi cho'lini irrigatsiya qilish loyihalariga nazariy asos bo'lib xizmat qilgan.

Ushbu qidiruv-loyiha ishlari keyingi o'n yilliklarda amalga oshirilgan yirik loyihalarning ilmiy-texnikaviy asoslarini yaratishga xizmat qildi. Qashqadaryo vohasida sug'orish tizimini kengaytirish ishlari Sovet davlatining agrar siyosati bilan bevosita bog'liq holda olib borildi. Bu davrda sug'orish nafaqat amaliy qurilish, balki ilmiy asoslangan loyiha-qidiruv ishlari orqali rivojlantirildi. 1930-yillardan boshlab yirik gidrotexnik loyihalarni amalga oshirish uchun asos yaratila boshlandi.

Respublikada o'tkazilgan yer-suv islohotlari irrigatsiya tizimlarini tartibga solish va davlat nazoratini kuchaytirishga yordam berdi. 1929-yilda yer islohoti eng oxirgilardan bo'lib Qashqadaryoda o'tkazildi. 1928-yil oktabridan 1929-yil oktabrigacha Qashqadaryo viloyatining yetti tumanida kolxozlar soni 28 tadan 93 taga, yangi tashkil etilgan kolxozlar qamrab olgan xo'jaliklar soni esa 539 tadan 1745 taga yetdi[2]. 1929-yilda **“8-Mart” va Koson kanallari** yog'och suv olish inshootlari qurilishi boshlandi[4].

Vohada yer tuzish ishlari bajarildi. Shahrisabz, Kitob va Yakkabog' tumanlarida yer tuzish ishlari uchun qo'shimcha ravishda 12 000 so'm ajratildi[5]. Viloyatda kolxozlar uch yo'nalishda tashkil etildi: o'zlashtirilgan, ammo tartibga solinmagan yerlarda; bitta yoki bir nechta xo'jalik hududida yerlarni boshidan oxirigacha qayta tartibga solish hududlarida; yangi sug'orish yerlarida. Bu islohot o'lkadagi yirik xususiy xo'jaliklarni tugatishdagi dastlabki qadam bo'ldi[6]. Bu bilan irrigatsiya tarmoqlari ham asta-sekin davlat nazoratiga o'ta boshladi.

1930-yillarga kelib Qashqadaryo viloyatida 14 ta irrigatsiya tizimi mavjud bo'lib, ular taxminan 103 ming gektar sug'orma yerlarni qamrab olgan. Biroq bu yerlarning faqat yarmi suv bilan to'liq ta'minlangan, qolgan qismi esa faqat suv ko'p bo'lgan yillarda sug'orilgan. Suv tanqis yillarda esa hosildorlik keskin pasaygan.

Qashqadaryoda amalga oshirilgan 30-yillardagi irrigatsiya sohasida keng ko'lamli ekspeditsiyalar xulosasiga ko'ra hududning topografik xaritalari tuzildi, yerlarning meliorativ holati o'rganildi, suv manbalari aniqlandi, sug'orishga yaroqli yangi yerlar belgilandi.

Bu jarayonlar Sovet davrida amalga oshirilgan “sotsialistik qurilish rejasi” bilan bog'liq bo'lib, ilmiy izlanishlar amaliy irrigatsiya siyosatining ajralmas qismi edi. Ilmiy izlanishlarning amaliy natijalari, irrigatsiya tizimini modernizatsiya qilish zaruratini asoslab berdi, yirik kanal va suv inshootlari qurilishi uchun ilmiy asos yaratildi, paxtachilikni kengaytirish uchun yangi yerlar aniqlashtirildi, keyingi (1950–60-yillar) yirik irrigatsiya loyihalariga zamin yaratildi.

30-yillarda Qashqadaryo vohasida olib borilgan loyiha-qidiruv ishlari irrigatsiya tizimining ilmiy asosda shakllanishida muhim bosqich bo'ldi. Eng birinchi galda mavjud yerlarda paxta yetishtirishni ko'paytirdi, shuningdek, bir vaqtning o'zida joylarda maxsus komissiya tashkil qilinib, qidiruv-loyiha ishlari amalga oshirildi. Berilgan takliflar asosida suvlarni yerlarga boshqarish uchun sug'orish inshootlari, ariqlar yo'li ishga tushirildi. Natijada paxta hosili 1925 yilga nisbatan 1935-yilga kelib ortdi[6].

1933-yilda Qashqadaryodagi sug'oriladigan yerlar taqsimoti
(Vinogradov, 1935):

Hudud	Sug'oriladigan maydon (gektar)
Qarshi vohasi	25 000

Shahrisabz va Kitob	20 000
Yakkabog' va G'uzor	15 000
Qamashi va Koson	10000

Ko'rinadiki 1926-yilda Qashqadaryo hududida maydon 5000 desyatin (5450 gektar) ni tashkil qilgan bo'lsa 1933-yilga kelib bu ko'rsatkich bir necha barobarga ortgan[7].

1933-yilda Qashqadaryo daryosining yirik magistral ariqlari va sug'orish manbalari asosan quyidagilardan iborat bo'lgan: Shahrisabzni suv bilan ta'minlaydigan Jinnidaryo, Oqsuv va Tanxozdaryo daryolari. Oqsuv daryosidan suv oluvchi Mo'minobodaryo va Chorshanba magistral kanallari. Yakkabog' hududiga suv beradigan Yakkabog'daryo, G'uzor hududini suv bilan ta'minlashda Katta-O'ra va Kichik-O'ra, G'uzordaryo, Langardaryo. Chiroqchi hududini suv bilan ta'minlovchi Qashqadaryoning Qayirma va Qoratepa magistral kanallari, Kosonga quyiluvchi Po'lati, Bo'lmas, Koson, Maymanoq magistral kanallari, Bek-Budiga quyiladigan Fayzobod, Beshkent, 1-May, Denov magistral kanallari, Qamashiga quyiluvchi Qamashi magistral kanali mavjud bo'lgan.

1934-1935-yillarda Beshkent tumanining Kahlak, Patron, Qovchin, Fazli, Denov va boshqa bir nechta qishloqlarini suv bilan ta'minlovchi ariqlar boshini bir nuqtaga birlashtiruvchi "1 May" kanali qurilib ishga tushirildi. Kanallarning suv bo'lgich inshooti sement qorishmasi quyilgan pishiq g'ishtlar va temir darvozalardan iborat edi. Bu inshoot Amudaryo suvini Qashqadaryoga kelib tushgunigacha (1974-yilgacha) o'z vazifasini bajarib turdi[8].

O'zbekiston Respublika hukumati Qashqadaryo vohasining suv ta'minotini yaxshilash va yangi yerlar o'zlashtirishga alohida e'tibor berib, 1936-yili mashhur muhandis gidrotexniklar Korjavin, Troitskiy, va Perlinlar ishtirokida davlat komissiyasi tuzdi. Bu komissiyaga Qashqadaryo vohasini ushbu maskan yaqinidagi suvli manbalar hisobiga suv ta'minotini yaxshilash yo'llarini izlab topish vazifasi topshirildi[6].

1936-1937 yillarda Koson tumanidagi Po'lati, Bo'lmas va Qarshi tumanidagi Shayxali kanallari bosh qismini birlashtiruvchi, soniyasiga 30 kub metr suv o'tkazish imkoniyatiga ega suv bo'lgich, suv tashlagich inshooti bilan "8 Mart" kanali ishga tushirildi[10].

Unga qadar har bir tumanda daryolarga sepoya qo'yish, nug'ola bosish, toshdan damba qilish bo'yicha ob-havoning kelishi, daryodagi suvning miqdoriga qaramasdan ishlaydigan mohir, usta miroblar ish olib borar edi. Yuqori tumanlar (Kitob, Shahrisabz, Yakkabog') da tosh bosqich miroblar bo'lsa, pastki tuman (Chiroqchi, Qarshi, Koson) larda sepoyalar qo'yib, shox-shabbalar, yulg'un va chimlar yordamida suv olgich damba quradigan ustalar mehnat qilishgan. Olib borilgan tadbirlar natijasida Qashqadaryo viloyati 40 ming tonna paxta hosilini yetishtirdi[11].

1939-yil Qashqadaryo irrigatsiya tizimi tarixida muhim bosqich bo'ldi. Bu yilda bir qator yirik gidrotexnik inshootlar qurildi: Koson tumanida 5 ta magistral kanal birlashtirildi, G'uzor tumanida Eskibog' va Yertepa kanallarida akveduklar qurildi, Yakkabog' tumanida Xabar kanalida akveduk bunyod etildi[13], Shahrisabz hududida ko'plab suv ajratish va tushirgich inshootlari qurildi. Natijada suvni boshqarish tizimi yaxshilandi, suv yo'qotishlar kamaydi, irrigatsiya samaradorligi oshdi. Ro'daksoy suv ombori qurildi[14].

Bundan tashqari, rejadan tashqari qurilgan gidrotexnik inshootlar ham mavjud bo'lib, ular hududiy ehtiyojlardan kelib chiqqan holda amalga oshirilgan.

1938-1939 yillari Koson tumanida Qashqadaryoning Toshkent-Dushanbe temir yo'li ko'prigi pastidan o'ng tomonda suv oladigan G'ishman, Qorabayir, Mo'din, Boyg'undi, Pudina, Obron va Koson kanallarining boshi birlashtirilib, Koson magistral kanali hashar yo'li bilan qurildi. Kanalning uch joyida yog'och materiallardan yasalgan suv qaytargich, suv bo'lgich inshootlar qurilib, yuqoridagi qishloqlar suvni bir joydan oladigan bo'ldi.

Qashqadaryoning past qismida joylashgan Koson tumanining Komilon, Qatag'on, Oqjangal, Maymanoq qishloqlari (hozirgi vaqtda Kasbi tumaniga qarashli) uchun chap tomondagi mavjud kanallar boshlari tartibga solindi va tumanning chekka qishloqlari Sariq, Xo'jamuborak va Muborak qishloqlari (hozirgi vaqtda Muborak tumaniga qaraydi) ni suv bilan ta'minlash maqsadida 40 km. uzunlikda Sariq asosiy kanali qurildi[12].

Amalga oshirilgan olamshumul irrigatsiya ishlari hisobiga birgina 1939-yili respublikada 50 dan ortiq irrigatsiya obyektlari, 1332 km. uzunlikdagi kanallar bunyod qilindi. Natijada respublika davlatga 1605 ming tonna paxta yetkazib berib, o'sha davrning birinchi darajadagi ordeni bilan mukofotlandi.

1940-yillarda ilgari surilgan eng muhim loyihalardan biri Zarafshon daryosidan suv olib kelish tashabbusi bo'ldi. Viloyatda mavjud suv resurslarining yetarli emasligi, irrigatsiya tizimining faqat ichki manbalar hisobiga rivojlantirish imkonsizligi, boshqa havzalardan suv olib kelish zarurati ushbu loyihani vujudga kelishiga asos bo'ldi. Mazkur loyiha amalga oshirilsa Qashqadaryoda paxta maydonlari 17 ming gektardan 50 ming gektarga ortishi ishlab chiqildi[13]. Loyiha strategik ahamiyatga ega bo'lib, keyinchalik Amudaryo kanali loyihalariga asos bo'lib xizmat qildi. Bu davrda irrigatsiya obyektlarini ta'mirlash, qayta qurish, yangilarini qurish bo'yicha ko'zga ko'rinarli ishlar amalga oshirildi. Daryolarning suv manbalarini aniqlash, sug'oriladigan yerlarning umumiy maydonlarini belgilash, ularni suv bilan ta'minlash, suv qaytargich, suv bo'lgich va suv tashlagich inshootlarning ahvolini o'rganish va qurish loyihalarini tuzish bo'yicha katta ishlar olib borildi. Shu vaqtda O'zbekiston suv xo'jaligi boshqarmasi "O'zirstroy" ("O'zbekiston irrigatsiya qurilishi") qurilish tresti tashkil etildi. "O'zirstroy" Sovet davrida O'zbekiston hududida irrigatsiya va melioratsiya qurilish ishlarini amalga oshirish uchun tuzilgan maxsus davlat tashkiloti bo'lib, u yer-suv islohotlaridan keyin tashkil etildi[14]. Shuningdek, katta daryo suvlarini tartibga solish bo'yicha daryo boshqarmalari, jumladan, Zarafshon daryosi bo'yicha "Uprozer" ("Управление по землеустройству и орошению") (keyinchalik "Zerdalvodhoz"ga o'zgartirilgan) boshqarma tashkil etildi[15]. Suv xo'jaligini kompleks nazorat qilish, kolxoz va sovxozlarga suv taqsimlashni bajarish maqsadida tashkil qilindi.

1940-yillarda sug'orish tizimi bilan bir qatorda boshqaruv tizimi ham isloh qilish bilan birga olib borildi. Sug'orish rejasi markazlashtirish, suvdan foydalanish me'yorlarini belgilash, irrigatorlar mas'uliyatini kuchaytirish orqali sug'orish ishlarini me'yorida bajarishga urinish hisobga olindi. Oldin suv taqsimoti mahalliy darajada boshqarilgan bo'lsa, endi davlat nazorati kuchaytirildi.

1940-yillarda sug'orish tizimi bilan bir qatorda boshqaruv tizimi ham isloh qilindi. Sug'orish rejasi markazlashdi, suvdan foydalanish me'yorlari belgilandi, irrigatorlar mas'uliyati oshirildi. Oldin suv taqsimoti mahalliy darajada boshqarilgan bo'lsa, endi ularga nisbatan davlat nazorati kuchaytirildi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Qashqadaryo irrigatsiya tizimi 1930-yillarda sodda holatda bo'lgan, 1939-yildan boshlab modernizatsiya jarayonlari boshlangan, 1940-yillarda esa suv tanqisligi asosiy muammo bo'lib qolgan. 1930–40-yillarda amalga oshirilgan irrigatsiya siyosati sug'oriladigan yerlarning kengayishiga, suvdan foydalanish samaradorligi oshishiga, gidrotexnik inshootlarning soni ko'payishiga, paxtachilikni rivojlanishiga yordam bergan. Bu qisqa muddatda nisbatan vohada paxta mahsulotlarni ortishiga xizmat qilgan.

Ushbu gidrotexnik ishlar amalga oshirilishi natijasida Qashqadaryoda nisbatan hosildorlik oshdi. Ammo 1940-yildan boshlangan qurg'oqchilik yillarida Qashqadaryoda bu yilgacha qilingan ishlar yetarli bo'lmaganligi ko'rindi.

1940-1946-yillarda Qashqadaryo viloyati kuchli qurg'oqchilikni boshdan kechirdi. Sug'oriladigan yerlarning katta qismi suv bilan ta'minlanmadi, hosildorlik keskin pasaydi, ayrim yerlarda umuman hosil olinmadi. Masalan, Beshkent tumanida: 1943-yilda hosildorlik gektariga 2,5 sentnerdan oshmagan 1944–1945-yillarda minglab gektar yerlar hosilsiz qolgan Bu holat viloyatda qo'shimcha suv manbalarini izlash zaruratini kechiktirib bo'lmaydigan vazifa sifatida keskin kuchaytirgan.

Xulosa qilib aytganda, 1930–40-yillar Qashqadaryo viloyatida Sovet davri uchun irrigatsiya tizimining shakllanish va rivojlanishiga asos soluvchi qidiruv-loyiha ishlarini olib boorish va mavjud suv inshootlarini tartiblash-tozalash davri bo'ldi. Bu davrda sodda sug'orish tizimidan zamonaviyroq, muhandislik asosiga ega tizimga o'tish jarayoni boshlandi. Ayniqsa, 1939-yildagi qurilishlar, 1940-yillardagi rejalashtirish ishlari va Zarafshon suvini olib kelish loyihasi viloyat irrigatsiya tarixida muhim burilish yasadi.

Xulosa va takliflar:

1930–1940-yillar Qashqadaryo viloyati irrigatsiya tizimi tarixida muhim bosqich bo‘ldi. Bu davrda mavjud an’anaviy sug‘orish tarmoqlari ilmiy asoslangan loyiha-qidiruv ishlari natijasida bosqichma-bosqich modernizatsiya qilindi. G.N. Vinogradov kabi olimlarning tadqiqotlari, SANIIRI institutining ilmiy ishlanmalari, “1 May”, “8 Mart”, Koson magistral kanali kabi yirik gidrotexnik inshootlarning qurilishi yangi sug‘orish tizimining shakllanishiga zamin yaratdi. Shu bilan birga, suv resurslarining cheklanganligi viloyat irrigatsiyasining zaif tomonlarini ochib berdi. Keyingi davrda esa Amudaryo va Zarafshon suvlarini olib kelish loyihalari asosiy strategik yo‘nalishga aylandi. Shu bilan birga, QVDA va viloyat hokimligi arxivi fondlarida saqlanayotgan irrigatsiyaga oid hujjatlarni to‘liq inventarizatsiya qilish va ilmiy muomalaga kiritish. 1930–1940-yillardagi irrigatsiya ishlarida qatnashgan keksa avlod vakillarining xotiralarini yozib olish. Keng ko‘lamli irrigatsiya qurilishlari natijasida yuzaga kelgan sho‘rlanish, yer osti suvlarining ko‘tarilishi kabi muammolarni tahlil qilish kabi takliflar beriladi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. САНИИРИ - 85 лет! // САНИИРИ на пути к интегрированному управлению водными ресурсами, Сборник научных трудов, посвященный 85-летию института САНИИРИ. –Ташкент, 2010. –Стр. 6.
2. Кашкадарьинская область. Т. I. –Ташкент, 1959. -280 с.
3. Виноградов Г.Н. Ирригация в долине Кашка-Дарьи. –Ташкент, 1956;
4. QVDA, С-133-fond, 1-ro‘ухат, 284-ish, 8-bet.
5. Джумабаев Ф. К вопросу о социально-экономических и политических предпосылках сплошной коллективизации сельского хозяйства кашкадарьинской области (1917-1929 гг.) // Научные работы и сообщения. Книга 5. – Ташкент, 1962.
6. Ўзбекистон тарихи (1917 – 1991 йиллар)Биринчи китоб 1917 – 1939 йиллар Тошкент., “Ўзбекистон” – 2019. 490-бет)
7. QVDA, С-133-fond, 1-ro‘ухат, 270-ish, 6-bet.
8. Духовный В.А., Шуттер Ю. Вода в Центральной Азии: прошлое, настоящее, будущее. –Алматы, 2018. –466 с;
9. Тошев Х. Қашқадарёда ирригация ишлари. –Тошкент: Ўзбекистон, 1976. –Б.24.
10. QVDA, 79-fond, 1-ro‘ухат, 86-ish. 85- bet
11. QVDA, 79-fond, 1-ro‘ухат, 86-ish. 88- bet
12. QVDA, 79-fond, 1-ro‘ухат, 86-ish. 86- bet
13. Ленинское знамя», 18ноября 1962 года.
14. Пардаев А. Возрожденный край. –Ташкент: Узбекистан, 1984. –С.30-38.
15. Муҳаммаджонов М. Ўзбекистон қишлоқ хўжалигининг 40 йиллиги//Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги, –Тошкент, 1957. 11-сон. –Б 5.

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000